

10-1Geo 24 guruhining dotsent, g.f.f.d Halimova Gulshan Subhonovna bilan birgalikda Sitorai Moxi – Xosa ga tashrifi



Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti Ekologiya va geografiya kafedrasida Geografiya ixtisosligi 1-kurs magistrantlari "Tibbiyot geografiyasi" fanidan olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida fan o'qituvchisi dotsent G.S. Halimova boshchiligida Buxoro viloyati Buxoro tumani hududida joylashgan "Sitorai moxi-xosa" sanatoriysiga sayyor dars tashkil etishdi.

Sanatoriyning bosh mutaxassisi tibbiyot fanlari doktori nevrolog-vertebrolog Ochilov Alisher Komilovich bilan uyushtirilgan suhbat davomida sanatoriyning tashkil etilishi tarixi, ushbu maskanda davolanayotgan bemorlar uchun yaratilgan qulayliklar, sanatoriy hududida 1600 metr chuqurlikdan chiqayotgan shifobaxsh mineral suvli buloq bilan bog'liq savollarga javob olindi. Sanatoriyning geografik va ekologik jihatdan qulay joylashuvi, sanatoriy hududida amalga oshirilgan ko'kalamzorlashtirish ishlari tahsinga sazovordir!

